

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR**  
**MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURGUNOV DOSTON TURGUNOVICH**

**INNOVATSION RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY QO‘LLAB-  
QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomilasi va kredit**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Turgunov Doston Turgunovich**

Innovatsion rivojlanishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish ..... 3

**Тургунов Достон Тургунович**

Совершенствования финансового обеспечения инновационного развития ... 33

**Turgunov Doston Turgunovich**

Improving financial support for innovative development..... 63

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 68

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR**  
**MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TURGUNOV DOSTON TURGUNOVICH**

**INNOVATSION RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY QO‘LLAB-  
QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomilasi va kredit**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.PhD/Iqt2857 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hajiyev Bahtiyor Dushaboyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Alimardonov Ilhom Muzrobshoxovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shakirova Farog'at Boltayevna**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.L16.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "3" 10 soat 14<sup>09</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1795 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 09 kuni tarqatildi.

(2025-yil "10" 09 daqiqa 83 raqamli reyestr bayonnomasi)



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosida bir martalik ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi,  
i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
asosida bir martalik ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish, startaplar va innovatsion klasterlarni moliyalashtirish hamda iqtisodiyotning yuqori texnologiyali segmentlarini barqaror o'sishga yo'naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy moliyaviy instrumentlardan (venchur kapital, biznes-angellar, grantlar, kraudfanding va davlat subsidiyalari) samarali foydalanish orqali innovatsion loyihalarining risk va samaradorligi muvozanatlashadi, yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlari kengayadi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kuchayadi. Shu bilan birga, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish innovatsiyalarning tijoratlashuvi jarayonini tezlashtiradi hamda global innovatsion zanjirlarda faol ishtirok etishni ta'minlaydi. Xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, "venchur moliyalashtirish va davlatning qo'shimcha moliyaviy rag'batlari innovatsiyalarning masshtablanishi va yalpi iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytiradi". Bundan ko'rinadiki, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Jahon miqyosida innovatsion rivojlanishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, avvalo, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish va ularni innovatsion biznes ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan. Ustuvor yo'nalishlar qatorida venchur kapital va biznes-angellarning institutsional asoslarini mustahkamlash, kraudfanding va raqamli moliya platformalaridan samarali foydalanish, shuningdek, davlat grantlari va subsidiyalarining innovatsion startaplar faoliyatidagi rolini kuchaytirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ESG tamoyillari asosida innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, intellektual mulk ob'ektlarini garov sifatida qabul qilish va innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonida moliyaviy xatarlarni sug'urtalash usullarini takomillashtirish masalalari ham dolzarb yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish maqsadida davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan qator vazifalar belgilangan hamda amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" doirasida milliy innovatsiya tizimini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (NIOKR) moliyalashtirish hajmlarini ko'paytirish, innovatsion startaplar uchun venchur moliyalashtirish va grantlar mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, innovatsiyalarga yo'naltirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish choralari ko'rildi. Bundan tashqari, innovatsion loyihalar uchun soliq imtiyozlari va kredit resurslarini taqdim etish orqali ularning moliyaviy jozibadorligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, raqamli moliyalashtirish platformalari va venchur fondlari orqali

innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha institutsional asoslar mustahkamlanmoqda. Bu islohotlar mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilib, ayni paytda mazkur masalalarga yo'naltirilgan tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2016-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-son “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha O'zbekistonda tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu bo'yicha olimlarimizning ilmiy ishlari mavjud emas. Ammo startap loyihalarni tadqiq etish, ularni moliyalashtirish manbalari, mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha bir necha xorijiy olimlarning ishlari mavjud. Avvalo, “Startup” tushunchasini tadqiq etgan xorijiy olimlar Yu.Appello, Ye.Brikman, G.Kavasaki, S.Vayz, E.Ris, Ye.Karen, S.Fisher, T.Xogan kabilarning tadqiqotlari va ilmiy ishlarini ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Appello, Ju. Startup, scaleup, screwup / Ju. Appello. –Wiley, 2019. – 240 p., 9. Brikman, Y. Hello, Startup / Y.Brikman. – O'Reilly Media Inc. – 2015. – 400 p., 37. Kavasaki, G. Startup po Kavasaki: Proverennyye metody nachala lyubogo dela: per. s angl. – 3-ye izd / G.Kavasaki. – M.: Alpina Publisher, 2018. – 331 s., Wise, S., Feid, B. Startup opportunities: Know when to quit your day job, 2nd ed. / S.Wise, B.Feid. – John Wiley & Sons, 2017 – 208 p., 49. Ris, E. Biznes s nulya: Metod Lean Startup dlya bystrogo testirovaniya idey i vybora biznes-modeli / E.Ris. – M.: Alpina Publisher, 2020. – 255 s., Fisher, S.; Duane, J.-N. The Startup Equation: A Visual Guidebook to Building Your Startup / S.Fisher; J.-N.Duane. – McGraw-Hill, 2016. – 288 p., Hogan, T., Broadbent, C. The Ultimate Start-Up Guide Career Press / T.Hogan, C.Broadbent, 2017. – 244 p.

Startap loyihalarining bir turi bo'lgan "Gazel" loyihalarni tadqiq etgan olimlar qatoriga D.L.Berch, P.F.Druker, A.Kuper, V.Parsons, I.V.Burenina, A.Yu.Yudakovalarningishlarini kiritishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Venchur moliyalashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar K.Amessa, M.Teubala, A.O.Karpenko, A.I.Kashirina, Ye.M.Rogovoy, Ye.M.Cherkashovalarni va ularning ishlarini misol tariqasida olishimiz mumkin. Kraud moliyalashtirish, bloyecheyn texnologiyalaridan foydalanish va mezonin moliyalashtirish bo'yicha K.Adjay, A.Brem, K.Fish, M.K.Sanin, T.V.Xmurova kabi olimlarning ishlarida kuzatiladi<sup>3</sup>.

O'zbekistonda innovatsion yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan bir qator ustozlarning ishlarini ham e'tirof etib o'tish joiz. Innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishga oid tadqiqotlar A.Ro'zmatov, D.Kokurin, D.Abdullayev, M.Mahkamova, T.Toshpo'latov, G.Hamdama, G.Hasanova, H.Nabiyev, N.Namozova, Z.Muqimov, Sh.Otajonov, Sh.Sindarov, I.Soliyev, G.Hatamova, R.R.Nazarova kabi ustozlarimiz tomonidan tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Innovatsiyalarni iqtisodiy jihatdan tadqiq etgan olimlar sifatida Z.Gaipnazarova, R.Gimush, F.Matmurodov, Z.Muqimov, G.Tarahtiyeva, T.Teshaboyev, N.Karimov, pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish jarayonini esa R.Mavlonova, N.Rahmonqulov, innovatsiyaning huquqiy taraflarini A.Ahmedovning tadqiqot ishlarida kuzatishimiz mumkin<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup> Birch, D.L., Medoff, J. Gazelles. Labor markets, employment policy and job creation / D.L.Birch, J.Medoff // Westview Press, Boulder. – 1994. – P. 159–167., 36. Druker P.F. Biznes i innovatsii. M.: Vilyams, 2007. 432 s., Birch, D.L., Haggerty, A., Parsons, W. (1995). Who's Creating Jobs? / D.L.Birch, A.Haggerty, W.Parsons // Boston: Cognetics Inc. – P. 46., I.V. Burenina, Ye.A. Byl', Bystrorastushchiye kompanii: obzor i sravneniye podkhodov k opredeleniyu i kriteriyam [Fast-growing companies: review and comparison of approaches to definition and criteria]. Vestnik UGNTU. Nauka, obrazovaniye, ekonomika. Seriya: Ekonomika. 2016, no. 4 (18), pp. 80–86.

<sup>3</sup> Amess, K. Essays on Venture Capital Investment: PhD thesis / K. Amess. – Nottingham: University of Nottingham, 2003. – 250 p., Teubal, M. Building Venture Capital Industries: Understanding the U.S. and Israeli Experiences / M. Teubal, G. Avnimelech. – Jerusalem: Hebrew University, 2002. – 45 p., Karpenko, A.O. Venchurnoye finansirovaniye innovatsiy / A.O. Karpenko. – Moskva: MAKSPress, 2015. – 256 p., Kashirina, A.I. Venchurnoye investirovaniye v Rossii: dis. ... kand. ekon. nauk / A.I. Kashirina. – Moskva: RUDN, 2007. – 180 p., Rogovoy, Ye.M. Venchurnoye predprinimatel'stvo v Rossii: teoriya i praktika: dis. ... dokt. ekon. nauk / Ye.M. Rogovoy. – Sankt-Peterburg: SPbGUEF, 1995. – 320 p., Cherkashova, Ye.M. Venchurnoye finansirovaniye innovatsionnogo biznesa: uchebnoye posobiye / Ye.M. Cherkashova. – Tyumen': TyumGU, 2018. – 210 p., Adjay, K. Venture Capital and Startups in Emerging Markets / K. Adjay. – London: Routledge, 2019. – 210 p., Brem, A. Research Handbook on Innovation and Entrepreneurship / A. Brem, E. Viardot. – Cheltenham: Edward Elgar, 2020. – 400 p., Fish, K. Venture Capital Decision-Making: PhD thesis / K. Fish. – Cambridge: University of Cambridge, 2017. – 220 p., Sanin, M.K. Venchurnoye finansirovaniye innovatsionnykh proyektov v Rossii: dis. ... kand. ekon. nauk / M.K. Sanin. – Moskva: GUU, 2016. – 185 p., Khmurova, T.V. Razvitiye venchurnogo investirovaniya v innovatsionnoy srede regiona: dis. ... kand. ekon. nauk / T.V. Khmurova. – Voronezh: Voronezhskiy gos. un-t, 2018. – 190 p.

<sup>4</sup> Рузматов А.А. Экономическое стимулирование инновационной деятельности на предприятиях машиностроительного комплекса Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... к.э.н. – Т.: Институт экономики Академии наук РУз., 1994. – 28 с.; Кокурин Д.И. Экономическое стимулирование развития предпринимательства в промышленной и инновационной сферах Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... к.э.н. – Т.: Институт экономики АН РУз, 1996. – 26 с.; Abdullayev B.A. Innovatsion faoliyatning boshqaruvini takomillashtirish. I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T., 2002. – 27 b.; Махкамova M.A. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... д.э.н. – Т.: ТГТУ., 2004. – 45 с.; Тошпулатов Т.З. Развитие инновационной деятельности в промышленности Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... к.э.н. – Т.: Институт экономики Академии наук Рес. Уз., 2004. – 24 с.

<sup>5</sup> Хамдамова Г.А. Совершенствование организации управления маркетингом на предприятиях в условиях технологических инноваций (на материалах предприятий телекоммуникаций Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... к.э.н. – Т.: ТГТУ., 2005. – 24 с.; Xasanova G.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyat

2019-yilda himoya qilingan A.A.Egamberdiyevning avtoreferatida keltirilgan fikrdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki: “Ayni paytda, O‘zbekistonda modernizatsiya sharoitida yoshlarda innovatsion ong shakllanishi masalalari, innovatsiya to‘g‘risidagi konsepsiyalar, innovatsion ong, shaxs va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi, yoshlarda innovatsion ongni shakllantirish muammolari alohida, yaxlit holda maxsus tadqiq etilmaganini qayd etish lozim”. Bunga qo‘shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, innovatsiyaning bir bo‘lagi bo‘lgan va endi rivojlanib kelayotgan startap tushunchasi ham hozirda fuqarolarimiz uchun yangi bir yo‘nalish. Startaplar bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, odamlarda innovatsion dunyoqarashni oshirish hozirdagi asosiy masalalardan biri.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib shuni ko‘rdikki, hozirgi iqtisodiy rivojlanish bosqichida startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining muhim taraflari yetarlicha o‘rganilmagan. Moliyalashtirish mexanizmini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda moliyalashtirishning manbalari, tashkilotlarni moliyalashtirishning umumiy savollari ko‘rib chiqilgan. Ammo zamonaviy kompaniyalar va ular bilan bog‘liq muammolar chuqur tahlil qilinmagan, ayniqsa, startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar yetarli emas. Albatta, bunga startap loyihalarni moliyalashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratishga bo‘lgan harakatlar yaqin 2-3 yil avval boshlanganligi ham asosiy sabablardan biridir. Startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha boshqarma tashkil etilganiga ham endigina 1 yildan o‘tdi. Ushbu soha bo‘yicha aytishimiz mumkinki, Respublikamizda yaqin 2-3 yildan beri e‘tibor kuchaytirildi.

Xalqaro miqyosda startaplarni moliyalashtirish masalalarini ichki tashkil etilgan milliy innovatsion ekotizim (MIET) doirasida ko‘rib chiqadilar. Ushbu mexanizmni Respublikamizda to‘laqonli qo‘llab bo‘lmasligi tabiiy, sababi ularning mexanizmida har bir davlatning o‘ziga xosligi, iqtisodiyoti yoki madaniyati hisobga olinmagan. Ushbu moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish va O‘zbekiston iqtisodiyotiga moslash, milliylikimizdagi omillarni hisobga olish, o‘z iqtisodiy sharoitimizga moslashtirishimiz kerak. Yangi

---

samaradorligini oshirish. I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T.: BuxDU, 2006. – 26 b.; Nabiyeu H.M. Mintaqalarda neft va gaz tarmoqlarini taraqqiy ettirish. I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T.: Plexanova nomidagi Rossiya davlat iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali, 2008. – 23 b.; Намазова Н.Д. Повышение качества трудового потенциала Узбекистана на основе развития инновационно-образовательной системы. Авторефер. дис. ... к.э.н. – T.: Институт экономики Академии наук РУз., 2009. – 28 с.; Teshaboyev T.Z. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish. I.f.d. (DcS) ... diss. avtoreferat. – T.: TDIU, 2019. – 83 b.; Muqimov Z.A. Innovatsion faoliyat xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari (“O‘zneftgazmash” AK korxonalari misolida). I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T.: O‘zR BMA, 2010. – 27 b.; Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish. I.f.d. (DcS) ... diss. avtoreferat. – T.: TDIU, 2018. – 95 b.; Sindarov Sh.E. O‘zbekiston Respublikasining tadbirkorlik faoliyatida innovatsion jarayonlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi. I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T.: O‘zR FA Iqtisodiyot universiteti, 2010. – 25 b.; Солиев И.И. Развитие инновационных процессов в сфере связи и информатизации Узбекистана. Авторефер. дис. ... к.э.н. – T.: Институт экономики АН РУз, 2010. – 23 с.; Xatamova G.R. Korporativ tuzilmalarda innovatsion strategiya mexanizmini takomillashtirish (“Toshkent tractor zavodi” OAJ misolida). I.f.n. ... diss. avtoreferat. – T.: O‘zR FA Iqtisodiyot universiteti, 2010. – 26 b.; Назарова Р.Р. Управление внешнеэкономической деятельностью в Узбекистане на основе инновационного развития в условиях глобализации. Авторефер. дис. ... д.э.н. – T.: ТГЭУ., 2011. – 48 с. // <https://library.ziyounet.uz/book/103188>.

startap loyihalarni moliyalashtirishda yangi biznes g'oyalarni o'rganib chiqish, zamonaviy talablarga ularni moslashtirish talab etiladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-80-sonli "Jamiyat rivojlanishi, davlat va huquq nazariyasi, iqtisodiyot raqobatbardoshligi" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini shakllantirishning, nazariy, amaliy va empirik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

"zamonaviy nazariyalar, empirik va amaliy tadqiqotlar asosida startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining amal qilishi prinsiplarini aniqlash, MIETlar doirasida shakllanish bosqichlarini asoslash;

nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida startaplarni moliyalashtirish elementlarini aniqlash hamda ularni turlarga ajratish;

startaplarni tanlab olish jarayonini o'rganish va ularni tanlab olish, moliyalashtirish bosqichlari bo'yicha taklif berish;

startaplarni moliyalashtirish yo'nalishlarini o'rganish, ularni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash. Bu boradagi muammolarni o'rganib ularni bartaraf etish bo'yicha taklif ishlab chiqish;

startaplarni tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llanilishi uchun moliyalashtirishga ma'lum cheklovlarni o'rnatish bo'yicha takliflar yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib startaplar, ularni O'zbekistondagi moliyalashtirish manbalari va startaplarni moliyalashtirish tashkilotlari faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** startaplarni moliyalashtirish mexanizmini shakllantirishda ishtirokchilar o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ekspert baholash, induksiya va deduksiya, korrelyatsion va regression tahlil, SWOT tahlil, ekonometrik modellash va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "milliy innovatsion ekotizim" tushunchasining iqtisodiy mazmuni startap loyihalari mualliflari va moliyalashtirish subyektlari o'rtasida maqsad hamda manfaatlarning kesishgan nuqtalarini aniqlash, moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish borasidagi samaradorligi yuqori bo'lgan startap loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda yaratilishdan joriy etishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan startap ekotizimi yaratish nazariyasi asosida takomillashtirilgan;

startaplarni to'liq, qisman yoki davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish natijasida istiqbolda foyda keltirish muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq davrlarga ajratish asosida imtiyozlar berish orqali startap

loyihalarining samaradorlik darajalari hamda natijaviylik davrlarini aniqlash taklifi asoslangan;

innovatsion loyihaning vaqt birligi, kichik va o'rta hajmi, tez o'suvchanligi, startap xususiyatlariga ko'ra tanlov shartlari belgilanib, faoliyat davriyligi ( $3 \text{ yil} \leq \text{FD} \leq 10 \text{ yil}$ ), yillik daromad ( $100 \text{ mln. so'm} \leq \text{YD} \leq 500 \text{ mln. so'm}$ ), o'sish tezligi (yillik 20 %dan ortiq, davomiyligi 2 yildan kam bo'lmagan) ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarish tarmog'i, axborot va kommunikatsiya, moliyaviy va sug'urta, ilmiy texnik faoliyat turlarining samarali rivojlanish imkoniyatlari dalillangan;

O'zbekistonda erta va kech rivojlanish bosqichida bo'lgan startaplar uchun muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ehtimoli tahlili bo'yicha logit modeli asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlashning 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy nazariyalar, empirik va amaliy tadqiqotlar asosida startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining amal qilishi printsiplari hamda MIETlar doirasida shakllanish bosqichlari asoslangan;

nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida startaplarni moliyalashtirish elementlari aniqlanib, ularni turkumlarga ajratilgan;

startaplarni tanlab olish jarayonini o'rganish va ularni tanlab olish, moliyalashtirish bosqichlari bo'yicha takliflar ilgari surilib, mazkur jarayonlarni yanada takomillashtirish asoslangan;

startaplarni moliyalashtirish yo'nalishlarini o'rganish, ularni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash asosida bu boradagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarni maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbaalardan xususan, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligidan olingani, innovatsion faoliyat, xususan, startap loyihalar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlardan foydalanilgani hamda tegishli taklif va tavsiyalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini, jumladan, uning mexanizmi va qismlarini tizimlashtirish, ularga ta'sir etuvchi omillar va yo'nalishlarini aniqlash, shu bilan birga, innovatsiyaning yangi yo'nalishi bo'lgan startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yangi zamonaviy qarashlarni shakllantirishda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiya va takliflar innovatsion faoliyatni baholash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan tarmoqlararo va mintaqaviy dasturlarni shakllantirishda qo'llanilishi, nuningdek, ushbu tadqiqotdagi nazariy va amaliy

materiallar oliy ta'lim muassasalarida «Innovatsion iqtisodiyot», «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish», «Innovatsion menejment» hamda «Korxona iqtisodiyoti» fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'quv jarayonida foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda startap loyihalarini moliyalashtirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "milliy innovatsion ekotizim" tushunchasining iqtisodiy mazmunini startap loyihalari mualliflari va moliyalashtirish subyektlari o'rtasida maqsad hamda manfaatlarning kesishgan nuqtalarini aniqlash, moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish borasidagi samaradorligi yuqori bo'lgan startap loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda yaratilishdan joriy etishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan startap ekotizimini yaratish nazariyasi asosida takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Innovatsion iqtisodiyot" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda startap ekotizimi yaratish nazariyasi asosida takomillashtirilgan "milliy innovatsion ekotizim" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

startaplarni to'liq, qisman yoki davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish natijasida istiqbolda foyda keltirish muddatiga ko'ra qisqa, o'rta va uzoq davrlarga ajratish asosida imtiyozlar berish orqali startap loyihalarining samaradorlik darajalari hamda natijaviylik davrlarini aniqlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-sonli "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida yoshlar o'rtasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni targ'ib etishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy kengashining 2023-yil 7-apreldagi № 04-13/292-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida startap loyihalarining samaradorlik darajalari va natijaviylik davrlarini aniqlashga erishilgan;

innovatsion loyiha vaqt birligi, kichik va o'rta hajmi, tez o'suvchanligi, startap xususiyatlariga ko'ra tanlov shartlari belgilanib, faoliyat davriyligi ( $3 \text{ yil} \leq \text{FD} \leq 10 \text{ yil}$ ), yillik daromad ( $100 \text{ mln. so'm} \leq \text{YD} \leq 500 \text{ mln. so'm}$ ), o'sish tezligi (yillik 20 %dan ortiq, davomiyligi 2 yildan kam bo'lmagan) ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqarish tarmog'i, axborot va kommunikatsiya, moliyaviy va sug'urta, ilmiy texnik faoliyat turlarining samarali rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-sonli "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida yoshlar o'rtasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni targ'ib etishda

foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy kengashining 2023-yil 7-apreldagi № 04-13/292-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida innovatsion loyihaning faoliyat davriyligi, yillik daromad, o'sish tezligi ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish tarmog'i, axborot va kommunikatsiya, moliyaviy va sug'urta, ilmiy texnik faoliyat turlarining samarali rivojlanishini ta'minlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda erta va kech rivojlanish bosqichida bo'lgan startaplar uchun muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ehtimoli tahlili bo'yicha logit modeli asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlashning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan oliy o'quv yurtlari "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Innovatsion iqtisodiyot" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda erta va kech rivojlanish bosqichida bo'lgan startaplar uchun muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ehtimoli tahlili bo'yicha logit modeli asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlashning prognoz ko'rsatkichlari asosida baholashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi hamda muhokama natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiya ishining **"Innovasion faoliyatni rag'batlantirishning zamonaviy nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida hozirgi kunda innovatsion faoliyat, xususan, startap loyihalarining iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanayotganligi bo'yicha butun dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilayotganligi, jumladan, "Boston konsalting" guruhi ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlardagi 90 %ga yaqin kompaniya

rahbarlari innovatsiyalarni strategik rivojlanishning asosiy omili sifatida e'tirof etayotganligi<sup>6</sup> bo'yicha yondashuvlar keltirilgan.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini yaxshilashda intensiv omillardan unumli foydalanish, innovatsion jarayonlarni hisobga olish, mahaliy firma va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash kabi uzoq muddatli istiqbolli rejalar tuzish talab etiladi.

Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyotni o'zaro bog'liq bo'lgan va doimiy bir-biri bilan aloqada bo'luvchi katta bir mexanizm sifatida qarash kerak (katta va kichik tashkilotlar, texnoparklar, ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, universitetlar va h.k.).

Innovatsion iqtisodiyotni yaratish yangicha qarashlarni talab etadi. Ushbu innovatsion iqtisodiy qarash o'zida barcha yangiliklarni jamlashi hamda butun jamiyatni qamrab olishi kerak. Innovatsion iqtisodiyot jamiyat qarashlarini shakllantirishda subyektlarning ilmiy va amaliy innovatsion aktivligini, ilmiy-texnik o'sishni, ilmiy-texnologiyalarni, ishlab chiqarish omillarini intellektuallashtirish omillari asosida innovatsiyaga yangicha qarashlarni yuzaga keltiradi.

Innovatsion rivojlanish – bu nafaqat yangi mahsulotga yangicha g'oyalarning tadbiiq etilishi, balki ushbu g'oyalarning yaratilish va uni amalga oshirish jarayoni ham. Ya'ni g'oyaning yaratilishdan tortib to uni amaliyotga tadbiiq etilishiga qadar bo'lgan vaqttni qamrab oladi.

Bunday sharoitda mahalliy iqtisodiyotni hisobga olgan holda innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish va ularni amaliyotga tadbiiq etishda nazariy hamda amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ko'plab tadqiqotchi olimlar va normativ hujjatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, innovatsiya so'ziga turlicha yondashuvlarni uchratamiz. Biroq ularni umulashtiruvchi asosiy jihatlar ham mavjud (1-jadval).

Yondashuvlar xilma-xilligini ko'radigan bo'lsak, B.Tvis innovatsion faoliyatga kashfiyotning yoki yangi bir g'oyaning iqtisodiy ahamiyat kasb etish jarayoni sifatida yondashadi. Yana bir iqtisodchi olim B.Santo esa agar yangilik iqtisodiy yangilik olib kelish uchun yaratilgan bo'lsa natijaviy mahsulot va texnologiyalarning sifati optimal shaklga kelishini ta'kidlaydi. Yoki bo'lmasa G.D.Otnyukovanning fikrini ko'rib chiqadigan bo'lsak: "Agar tashkilot yangilikni joriy etsa, yangilik asosida yangi tovar ishlab chiqarishni boshlasa, u mutlaqo yangi darajadagi, ya'ni innovatsion darajadagi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni<sup>7</sup>" deb ta'rif beradi.

Ko'plab innovatsiya bo'yicha ta'kidlangan fikrlarni tadqiq etib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, innovatsiya bu avvalgilariga o'xshamaydigan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi g'oya yoki mexanizm bo'lib, iqtisodiy

---

<sup>6</sup> Barsh J., Capozzi M., Davidson J. Op. cit.

<sup>7</sup> Innovatsion faoliyat tushunchasi va uning belgilari. O.E.Kutafina nomidagi Universitet xabarnomasi, 2015.

jihatdan yuqori samaradorlikga erishilishiga olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.

Shunday qilib, “Innovatsion faoliyat tashkiliy-boshqaruv jarayonlarga zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni kiritish, tashkilotga yangi bozorlarni egallash, mavjud texnologiya, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish yoki yangilarini yaratishni ifodalaydi” .

Iqtisodiyotning turli bosqichlarida innovatsion faoliyatning funksiyalari: rejalashtirish, rag‘batlantirish va boshqaruv bo‘lib, boshlang‘ich funksiya – bu rejalashtirish bo‘lib, u o‘z ichiga rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, mavjud resurslar yoki ehtimoliy talabni hisoblashlarni oladi. Avvalambor, maqsadga erishishda talab etilayotgan investitsiyani aniqlashni ifodalaydi. Innovatsion faoliyatni rejalashtirish ta‘minotdagi risklarni minimallashtirishga, innovatsion mahsulotlarni ortiqcha sarflash va moliyaviy yetishmovchilikni oldini olishga yordam beradi.

Albatta, innovatsion faoliyatga ta‘sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. Ushbu omillar ichida iqtisodiy-texnologik omillarga alohida e‘tibor qaratish kerak. Bunda rivojlanayotgan texnologiyalarni hisobga olish, moliyaviy zahira hamda unga mos keluvchi moddiy-texnik baza, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmada ishlab chiqarish quvvatini hisobga olish kerak. Ushbu omillarni hisobga olish, ulardan muqobil foydalanish tashkilotning innovatsion faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bunga teskari bo‘lgan holatni ko‘radigan bo‘lsak, innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, ishlab chiqarish va no ishlab chiqarish quvvatining yetishmasligi kabi omillar innovatsion jarayonni sekinlashtirish, hatto to‘xtatib qo‘yishi ham mumkin.

Yana shuni ham hisobga olish kerakki, uzoq muddat talab etadigan innovatsion texnologiyalarni, katta xarajat sarflab amaliyotga tadbqiq etish qanchalik foydali yoki zarar ekanligini to‘g‘ri baholay olish zarur. Bozor omillari mahsulot ishlab chiqaruvchining monopol yoki raqobatchisi borligiga ko‘ra turlicha ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, innovatsion mahsulotga nisbatan yalpi talabning mavjudligi ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Katta biznesga ega yirik tadbirkorlar innovatsiya rivojlanishida asosiy manba bo‘lishlari kerak. Katta biznesda tadbqiq etilgan innovatsiyalar amalga oshirilgan ishlar bilan sinergetik samara olib kelishi lozim. Hozirgi kunda katta biznes bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar o‘zlarining innovatsion imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmayotganliklari ularni raqobatda ustunlikni qo‘ldan boy berishlariga olib kelmoqda<sup>8</sup>.

Vaziyatdan kelib chiqib fikr bildiradigan bo‘lsak, har qanday ilmiy izlanishlar 3-5 yilda o‘z samarasini ko‘rsatishini hisobga oladigan bo‘lsak bunday riskga boruvchilar sonini keskin kamaytirib yuboradi.

---

<sup>8</sup> Parakhina V.N., Rafian K.A., Boris O.A. et al. Features of the current stage of Russia's innovative development // *Advances in Economics, Business and Management Research*. – Atlantis Press. SARL, 2020. Vol. 128. – P. 551-557.

## 1-jadval

### Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasiga berilgan turli ta'riflar<sup>9</sup>

№	Hujjat nomi	Manba	Tushunchaga ta'rif
Normativ-huquqiy hujjatlar			
1	O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"	O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 19-iyunda ma'qullangan. "Innovatsion faoliyat to'g'risida" 630-son.	Innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma; innovatsion faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat.
Ilmiy maqolalar			
1	B.Tvis	Ilmiy-texnik yangiliklarni boshqarish. Red. K.F.Puzinya. – M.: Ekonomika, 1989. – 271 s.	Kashfiyot yoki yangi g'oyaning iqtisodiy ahamiyat kasb etish jarayoni.
2	B.Santo	Innovatsiya iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida. B.V.Sazanova. – M.: Progress, 1990.	Agar yangilik iqtisodiy foyda olib kelish uchun yaratilgan bo'lsa, mahsulotlar va texnologiyalarning sifat ko'rsatkichlarini optimal shaklga olib kelishga sabab bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.
3	F.F.Bezdudniy, G.A.Smironova, O.D.Nechayeva	"Innovatsiya" tushunchasining mohiyati va uning turlanishi // Innovatsiya, 1998. – № 2-3.	Bozordagi mavjud talabni to'yintiruvchi va iqtisodiy samara olib keluvchi, inson hayotining har qanday yo'nalishida yangi g'oyalarning amalga oshirilish jarayoni.
4	G.D.Otnyukova	Innovatsion faoliyat tushunchasi va uning belgilari // O.E.Kutafina nomidagi Universitet xabarnomasi, 2015.	Ilmiy-texnik faoliyat natijalarini joriy etish. Agar tashkilot yangilikni joriy etsa, yangilik asosida yangi tovar ishlab chiqarishni boshlasa, u mutlaqo yangi darajadagi, ya'ni innovatsion darajadagi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni.
tadqiqotchining innovatsiyaga berilgan mualliflik ta'rifi:			
1	D.T.Turgunov	Innovatsion rivojlanishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish mexanizmi. Dissertatsiya. – Toshkent, 2025.	Innovatsiya – bu avvalgilariga o'xshamaydigan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi g'oya yoki mexanizm bo'lib, iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka erishilishiga olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon

<sup>9</sup> Manba: Парфенова А.Ю., Юкласова А.В. К вопросу о понятии «Инновации» // Московский экономический журнал. – Москва, 2019. – № 8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-ponyati-innovatsii> (data obrashaniya: 01.12.2022).

Shuning uchun ham milliy tadbirkorlik-tuzilmalarida hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyozsiz innovatsion asosda iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar ham innovatsion rivojlanish sur'atini pasaytiradi.

Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatga erishishi uning ishtirokchilari qanchalik ushbu loyihaga qiziqayotganliklari va intilishlariga bog'liq. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish muammolari iqtisodiy adabiyotlar va turli ilmiy maqolalarda keng ko'rib chiqilmoqda. Uning zarurati va rag'batlantirishning turli yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu yo'nalishda Ye.M.Kolokina, A.V.Litvinova, M.V.Parfenova, G.A.Sakaro va boshqalar tadqiqot olib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda innovatsion aktivlikni rag'batlantirish murakkab jarayon bo'lib, ayrim holatlarda innovatsion faoliyatning ayrim funksiyalarida o'zaro teskari bo'lgan yoki bir-biriga mos bo'lmagan qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

G.M.Dendak va K.A.Prosenkolarning fikricha, "Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish", asosan, uch ko'rinishda uchraydi:

- 1) Innovatsiyani davlat tomonidan rag'batlantirilishi;
- 2) Byudjetdan tashqari mablag'lari asosida moliyalashtirish;
- 3) Innovatsion faoliyat ishtirokchilarini rag'batlantirish.

"Innovatsion faoliyatda davlatning ishtirokiga ko'ra uni quyidagi ko'rinishlarda kuzatishimiz mumkin: davlat, nodavlat va aralash (davlatning qisman aralashuvi) ko'rinishlarida.

Ushbu fikrni ko'plab tadqiqotchilar va olimlar ma'qullaydi. Ayrim tadqiqotchilar shaxsiy mablag'lar hisobiga amalga oshiriluvchi innovatsion faoliyatlarni nazardan chetda qoldirib, asosiy e'tiborni davlat tomonidan ko'rsatilayotgan rag'batlantirishlarga qaratadilar. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda texnologik rag'bat juda muhim deb hisoblanadi<sup>10</sup>.

Davlat tomonidan rag'batlantirishni A.Saakyan asosiy 4 omilga ko'ra ajratadi: innovatsion jarayon bosqichi; rag'batlantirish subyekti; rag'batlantirish usuli (qaytish va qaytmaslik shartlari asosida); byudjetdan rag'batlantirish ko'rinishida.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan rag'batlantirishlarning asosiy qismi innovatsion faoliyatning xarajatlar qismini moliyalashtirishga qaratilgan bo'lib, bu bilan davlatning iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishini ifodalab beradi. Ushbu innovatsion faoliyatning moliyalashtirish jarayonining klassifikatsiyasini ko'rsatib berish uchun quyidagi jadvalga e'tiboringizni qaratsak (2-jadval).

---

<sup>10</sup> Нестеров А.К. Стимулирование инновационной деятельности [Электронный ресурс] // Энциклопедия Нестеровых. URL: <http://odiplom.ru/lab/stimulirovanie-innovacionnoi-deyatelnosti.html> (дата обращения: 17.02.2020).

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonining klassifikatsiyasi<sup>11</sup>

Rag‘batlantirish turi	Klassifikatsiyalash belgilari												
	Innovatsion faoliyat bosqichi				Rag‘batlantirish subyekti			Rag‘batlantirish usuli		Byudjetga daromad olish yo‘nalishi			
	FT	ID	KI	K	FB	MinB	MunB	QA+	QA-	F	D	S	P
Dotatsion	+	+			+	+			+				
Davlat kafolati			+	+					+		+		
Mulkni ijaraga olishga imtiyozlar	+	+				+	+		+		+		
NIOKRga xarajatlarni qoplash subsidiyalari		+				+	+		+		+		
Investitsion soliq krediti		+	+		+	+	+	+		+	+		

Izoh: FT – fundamental tadqiqotlar, ID – ilmiy tadqiqot ishlanmalari, KI – konstruktorlik ishlanmalari, K – innovatsion loyihani kommersializatsiya qilish, FB – federal byudjet, MinB – mintaqaviy byudjet, MunB – munisipal byudjet, QA – qaytarish asosida, QA – qaytarmaslik asosida, F – % ko‘rinishida daromad olish, D – dividend ko‘rinishida daromad olish, S – soliq ko‘rinishida daromad olish, P – pul ko‘rinishida daromad olish.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag‘batlantirishni tashkil etishning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida hozirgi sharoitda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning har xil ko‘rinishlarini turli tadbirkorlarning faoliyatiga ta‘sirini baholash, shu asosda innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini va yo‘nalishlarini aniqlash, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishdir.

Davlat innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etayotgan, ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar uchun imtiyozlar berish orqali innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish kerak. Innovatsiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda, asosan, sanoat korxonalrida, qishloq xo‘jaligida, IT va dasturlash, tibbiyot sohalarida innovatsion g‘oyalar ko‘plab ishlab chiqilmoqda.

Dissertatsiya ishining **“Startaplarni moliyalashtirish tahlili: O‘zbekiston va boshqa rivojlangan davlatlar misolida”** deb nomlangan ikkinchi bobida asosiy e‘tibor innovatsion faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan startup loyihalar, O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlardagi startup loyiha mexanizmlari tahlil qilingan.

Butun jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo‘nalishga o‘tishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli tarmoqlarga joriy etilishi, moliyalashtirishda yangi imkoniyatlar yuzaga kelishi yangi kompaniya va tashkilotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ana shunday yirik yo‘nalishlardan biri bu startup loyihalar bo‘ldi.

<sup>11</sup> Manba: Саакян А.М. Формы стимулирования инновационной деятельности предприятий оборонно-промышленного комплекса. Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Красноярск, 2012. – 23 с.

Zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarda startaplarni tadqiq etayotgan ko‘plab ishlarda asosiy urg‘u boshqaruvdagi muammolarga, yangi biznes modellarni ishlab chiqishga, insonlarga motivatsiya berishga qaratilgan. Ana shunday adabiyotlar qatoriga E.Risning “Noldan biznes: G‘oyalarni tekshirish va biznes modellarni tanlashda “Lean Startup modeli”<sup>12</sup>, S.Vayz va B.Feydning “Startup imkoniyatlari: doimiy ishingizni qachon tashlashingizni biling”<sup>13</sup>, S.Blankning “Startup: asoschining ish kitobi”<sup>14</sup> hamda Yu.Appelo<sup>15</sup>, D.S.Rouz, Ye.Brikman, S.Fisher va Ya.N.Duane, T.Xogan va K.Broadbent, G.Kavasakilarning kitoblarini misol keltirishimiz mumkin. Ko‘plab nashrlarda, jumladan, ilmiy adabiyotlarda, ilmiy konferensiyalarda startaplar mavzusi tez-tez kuzatilmoqda. Ularning rivojlanish yo‘nalishlari va moliyalashtirishning yangi manbalari paydo bo‘layotganligi esa bu yo‘nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi. Ammo barcha mualliflar ham muvaffaqiyatga erishavermaydi. Bunday sharaftga faqatgina startap loyihalarda nostandart bo‘lgan, o‘ziga xos yechimlarni taklif etayotganlarga musharraf bo‘ladi.

Nazariyotchi va amaliyotchi olim E.Risning fikriga ko‘ra, startap loyihalarda muammolarning yechimi boshqaruvdagi eskicha qarashlar hamda moliyaviy ta‘minotning yetishmasligi bo‘lib qolmoqda. Har qanday muvaffaqiyatga ko‘plab omadsizliklar to‘siq bo‘ladi: mahsulotlar rastalardan bir necha haftada olib tashlanadi<sup>16</sup>. Biz muammoga yechim topishda “Tejamkor startap” (The Lean Startup) usulidan foydalanishni taklif etdik. Unga ko‘ra, qisqa muddatli mahsulot yaratib, uni tekshiruvdan o‘tkazishga asoslangan katta boshlang‘ich moliyalashtirishga muhtoj bo‘lmagan usulni taklif qildik.

Ushbu usul o‘zining samaradorligini “Silikon vodiysi”da bir necha bor ko‘rsatdi. Ammo bu usul moliyaviy masalalarni to‘liq hal qila olmaydi, aynan: loyihalarni tanlash, investitsiya uchun kerakli moliyaviy hajmni, startap loyihaning amalga oshish ehtimolini aniqlashda yordam beradi.

Startaplarni moliyalashtirish masalasidagi tadqiqotlarga kelsak, bu borada bir necha loyihalar innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tadqiq etayotgan kichik biznes, venchur moliyalashtirish, kraud moliyalashtirish va blokcheyn texnologiyalari asosida moliyalashtirish hamda boshqa ko‘rinishdagi moliyalashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etayotgan olimlar tomonidan olib borilmoqda. Xalqaro miqyosda startap loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha

---

<sup>12</sup> Рис Э. Бизнес с нуля: Метод Lean Startup для быстрого тестирования идей и выбора бизнес-модели / Э.Рис. – М.: Альпина Паблишер, 2020. – 255 с.

<sup>13</sup> Wise S., Feid B. Startup opportunities: Know When to Quit Your Day Job, 2nd ed. / S.Wise, B.Feid. – John Wiley & Sons, 2017. – 208 p.

<sup>14</sup> Бланк С. Стартап: Настольная книга основателя / С.Бланк, Б.Дорф: пер. с англ. 5-е изд. – М.: Альпина Паблишер, 2019. – 616 с.

<sup>15</sup> Appelo Ju. Startup, scaleup, screwup / Ju.Appelo. – Wiley, 2019. – 240 p.

<sup>16</sup> Рис Э. Бизнес с нуля: Метод Lean Startup для быстрого тестирования идей и выбора бизнес-модели / Э.Рис. – М.: Альпина Паблишер, 2020. – 255 с.

D.S.Rouz<sup>17</sup>, Dj.Xill<sup>18</sup>, S.Berinato<sup>19</sup>, A.Kremadas<sup>20</sup> va boshqalar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan.

Startaplarni moliyalashtirish tushunchasini to'liq tushunish uchun "startap" tushunchasining o'ziga izoh berib, uning qanday tushuncha ekanligini aniqlab olishimiz kerak bo'ladi. Hozirgi kunda startap tushunchasi keng qo'llanila boshlandi. Ayniqsa, yosh tadbirkorlar uchun bu tushuncha va u bilan bog'liq masalalar yaxshi tanish. Yangi loyihalarni tuzish, yoki tadbirkorlik biznes rejalarini tuzishda ushbu tushunchadan keng foydalana boshladilar.

Endi ushbu startap fenomenini ilk tadqiq etilish tarixiga to'xtalsak, 1979-1996-yil oralig'ida amerikalik iqtisodchi olimlar D.Berch va Dj.Meddoflar tomonidan qo'llanila boshlandi. Mualliflar tez rivojlanayotgan investorlik kompaniyalarini "gazel" (gazelles) deb nomlay boshlaydi<sup>21</sup>. Ayni shu vaqtda V.Broker<sup>22</sup> "startap" so'zini qo'llashni boshlaydi. Ushbu so'z orqali u tez rivojlanayotgan investorlik kompaniyalarining ilk davrini ifodalaydi.

D.Berchning fikriga ko'ra, tez rivojlanuvchi samarali g'oyalar, asosiy yaratilayotgan ish o'rinlari ana shunday kompaniyalarga tegishli. Ayni bu vaqtga kelib yirik kompaniyalar (fillar), kuchsiz kompaniyalarni o'ziga qo'shib oluvchi kompaniyalar (sherlar) va mikrokompaniyalar (sichqonlar) o'z ish o'rinlarini qisqartirishga harakat qilardi. Olim tomonidan kompaniyalarning hajmiga emas, balki ularning rivojlanish foiziga qarab 100 000 AQSh dollari atrofidagi ilk minimal daromadini olgan, har yillik 20 % rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lgan tashkilotlarni "gazel" deb ataydi<sup>23</sup>.

Shundan so'ng "startap" so'zi Amerikaning "Forbes" va "Business Week" jurnalida ilk marotaba qo'llanildi<sup>24</sup>. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi, moliyalashtirishning yangi manbalari, iste'molchilarning talablaridan kelib chiqib, o'tgan asrning 90-yillaridan alohida xo'jalik subyektlari sifatida o'rganila boshlandi<sup>25</sup>.

S.Vayz va B.Feyd 1994-yilda "startap" so'ziga shunday izoh berishadi: startap deb aytishimiz uchun kompaniyaning yillik daromadi kamida 1 million dollar bo'lishi yoki har 4 yilda daromadi ikki baravarga o'sib borishi kerak. Geografik nuqtayi nazardan ularning kompaniyalari qayerda joylashganligining ahamiyati yo'q<sup>26</sup>.

<sup>17</sup> Rose D.S. The startup Checklist / D.S.Rose. – John Wiley & Sons, 2016. – 320 p.

<sup>18</sup> Hill J. Fintech and the Remaking of Financial Institutions / J.Hill: Academic press, 2018. – 386 p.

<sup>19</sup> Berinato S., Baehr E., Loomis E. Get Your Venture Backed with Persuasive Data Viz / S.Berinato, E.Baehr, E.Loomis. – Harvard Business Review, 2019. – 524 p.

<sup>20</sup> Cremades A. The art of startup fundraising / A.Cremades. – Wiley, 2016. – 224 p.

<sup>21</sup> Birch D.L., Medoff J. Gazelles. Labor markets, employment policy and job creation / D.L.Birch, J.Medoff. – Boulder: Westview Press, 1994. – P. 159-167.

<sup>22</sup> Boeker W. Strategic change: The effect of founding and history / W.Boeker // Academy of Management Journal, 1989. – № 32. – P. 489-515.

<sup>23</sup> Birch D.L., Haggerty A., Parsons W. Who's Creating Jobs? / D.L.Birch, A.Haggerty, W.Parsons. – Boston: Cognetics Inc., 1995. – P. 46.

<sup>24</sup> Wise S., Feid B. Startup opportunities: Know When to Quit Your Day Job, 2nd ed. / S.Wise, B.Feid. – John Wiley & Sons, 2017. – 208 p.

<sup>25</sup> Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента. Учеб. пособие для сред. спец. учеб. заведений. 3. изд., доп. и перераб. / И.Т.Балабанов. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 525 с.

<sup>26</sup> Wise S., Feid B. Startup opportunities: Know When to Quit Your Day Job, 2nd ed. / S.Wise, B.Feid. – John Wiley & Sons, 2017. – 208 p.

Turli manbalarda “startup” so‘ziga berilgan izohlar<sup>27</sup>

Izoh	Muallif	Manba
<i>Xalqaro amaliyotchi va nazariyotchi olimlarning izohlari</i>		
turli sharoitlarda yangi maxsulot va xizmatlarni yaratishga qaratilgan kompaniya yoki insonlardan tashkil topgan guruh faoliyati	E.Ris Menejment sohasidagi amaliyotchi va nazariyotchi	Ris E. Бизнес с нуля: Метод Lean Startup для быстрого тестирования идей и выбора бизнес-модели / E.Ris. – М.: Alpina Publisher, 2020. – 255 s.
Faoliyatning ilk davrida bir necha ishtirokchidan iborat bo‘lgan, o‘zining rivojlanishini bir joydan boshlashiga qaramasdan, o‘z joyini tez-tez o‘zgartiruvchi va tez rivojlanayotgan kompaniya.	S.Vayz va B.Feyd Startaplarga investitsiya kiritish bo‘yicha amaliyotchi hamda konsultantlar	Wise S., Feid B. Startup opportunities: Know when to quit your day job, 2nd ed. / S.Wise, B.Feid. – John Wiley & Sons, 2017. – 208 p.
Tez rivojlanish uchun tashkil etilgan kompaniya: kompaniya tez fursatda kengayish xususiyatiga ega.	P.Grem Tadbirkor va venchur kapitalist	Startup Equals Growth. 10. 2012. [Электронный ресурс] // Graham Paul // <a href="http://www.paulgraham.com/growth.html">http://www.paulgraham.com/growth.html</a> .
<i>Lug‘atlardagi izoh</i>		
Qisqa muddati faoliyat tarixiga ega bo‘lgan kompaniya	Oksford lug‘ati	Simpson, J., Weiner, E. The Oxford English Dictionary / J.Simpson, E.Weiner. — United Kingdom: Oxford University Press, 1989. — 21730 s.
Kichik, endigina boshlangan biznes. Yangi biznes yoki yangi biznesni ochish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat.	Kembridj lug‘ati	Startup [Электронный ресурс] // Cambridge Dictionary // <a href="https://dictionary.cambridge.org/ru/slovar/angliyskiy/start-up">https://dictionary.cambridge.org/ru/slovar/angliyskiy/start-up</a>
Faoliyati endi boshlangan kompaniya – bu uncha katta bo‘lmagan biznes.	Kollinz lug‘ati	Startup [Электронный ресурс] // Collins Dictionary // <a href="https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/start-up">https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/start-up</a>

<sup>27</sup> Manba: har bir ta’rif bo‘yicha manba jadvalda alohida ustunda keltirilgan.

Hozirgi vaqtga kelib ilmiy yo‘nalishda ham, biznes va tadbirkorlik yo‘nalishida ham startap so‘ziga umumiy kelishilgan yagona izoh berilmagan. Startap so‘ziga berilgan ayrim ihozlarni 3-jadvalda ko‘rishingiz mumkin. Dunyo miqyosida keng tarqalgan izoh E.Risning bergan izohi bo‘lib, uning o‘ziga xosligi shundaki, unga ko‘ra kompaniyaning hajmi to‘g‘risida, sohasi, kompaniyaning yo‘nalishi bo‘yicha hech nima aytilmagan. Asosan, innovatsion xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha berilgan.

Startap so‘ziga izoh berilar ekan, iqtisodiy va biznes-lug‘atlarda uning kichik hajmda bo‘lishiga va qisqa muddatli faoliyatga ega ekanligiga urg‘u berishadi (3-jadval).

Taklif etilgan ta‘riflardan kelib chiqib, N.Robexmed fikriga qo‘shilish mumkin. Unga ko‘ra, startaplarning kichik biznesdan asosiy farqi – bu uning qisqa muddatda o‘shish tendensiyasiga ega ekanligidir. Geografik holatidan qat’i nazar tezlikda o‘shish sur‘atiga egaligi uning o‘ziga xosligini ifodalab beradi.

Shunday qilib, “startap” so‘zining mohiyatini ochib berishda turli yondashuvlar va fikrlardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot davomida quyidagicha ta‘rifni taklif etamiz: startap deb – yaratilganiga ko‘p bo‘lmagan, mavhumlik holatida faoliyat boshlagan, innovatsion xarakterga ega bo‘lgan, foyda olishga qaratilgan, tez o‘shish va rivojlanish xususiyatiga ega global faoliyatga aytiladi.

Startap loyihalarni moliyalashtirish tendensiyalarini tadqiq etish startap iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari va ularni moliyalashtirish hajmiga asoslanadi. Startap loyihalari shakllantirila boshlanganiga va bunday turdagi innovatsion ishlanmalar bilan shug‘ullanish boshlanganiga hali ko‘p bo‘lgani yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tarkibida Startap loyihalar boshqarmasi tashkil etilganiga ham bor yo‘g‘i endi 1 yildan oshdi.

Startap loyihalarga ajratilgan mablag‘larni ko‘radigan bo‘lsak, 2021-yilda mahalliy va xalqaro tanlovlari doirasida jami qiymati 41,4 mlrd so‘mlik 56 ta startap loyiha moliyalashtirishga tavsiya etilgan.

Moliyalashtirishga tavsiya etilgan startap loyihalarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari kesimidagi ulushi qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha 9,9 mlrd so‘mlik 15 ta, sog‘liqni saqlash sohasi bo‘yicha 5,9 mlrd so‘mlik 9 ta, axborot texnologiyalari bo‘yicha 9,1 mlrd so‘mlik 12 ta, transport va energetika sohasi bo‘yicha 6,1 mlrd so‘mlik 8 ta, oziq-ovqat sohasi bo‘yicha 2,1 mlrd so‘mlik 3 ta, boshqa soha-tarmoqlar bo‘yicha 7,2 mlrd so‘mlik 9 ta loyihani tashkil qilmoqda. Mazkur startap loyihalarning amalga oshirilishi natijasida jami 685 ta yangi ishchi o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan.

Startup Genome tadqiqotlar markazi ma‘lumotlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yildan 2018-yilga qadar tashkil etilgan global startap loyihalarga 2,8 trln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan. Bu ko‘rsatkich 2015-2017-yil davriga nisbatan 21,7 % ga (2,3 trln AQSh dollari), 2014-2016-yil davriga nisbatan esa 53 % ga (1,83 trln AQSh dollari) oshgan<sup>28</sup>.

---

<sup>28</sup> Global startup report 2020 [Электронный ресурс] // Startup Genome. Режим доступа: <https://startupgenome.com/reports/gser2020>

Startup loyihalarni tadqiq etish mobaynida ushbu yo‘nalishdagi loyihalar dunyo miqyosida startup iqtisodiyotining keskin oshirganligini kuzatishimiz mumkin. Ilk startup loyihalarni kuzatadigan bo‘lsak, 2008-yildagi eng yirik kompaniya Microsoft – innovatsion texnologiyalar ishlab chiqaruvchilari bo‘lgan bo‘lsa, 2009-yilga kelib, bunday yirik kompaniyalar soni 7 taga yetdi (Apple, Google, Microsoft, Amazon, Facebook, Alibaba, Tencent). Ushbu yirik kompaniyalarning 3tasi Silikon vodiysidan chiqqan.

Startup Genome tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yildan to hozirgi kunga qadar Silikon vodiysi startup ekotizimlari ichida 1-o‘rinni egallab kelmoqda. 2-o‘rin Nyu York, 3-o‘rin London, 4-o‘rin Pekin, 5-o‘rin Boston, 6-o‘rin Tel-Aviv, 7-o‘rin Los-Anjeles, 8-o‘rin Shanxay, 9-o‘rin Parij va 10-o‘rin Berlinga tegishli. Silikon vodiysining 86 % loyihalari pul bilan moliyalashtirish bosqichiga qadar yetib boradi.

Startup Genome tadqiqotlar markazi ma’lumotlariga e’tibor qaratsak, Startup loyihalar ekotizimi, ularni moliyalashtirish, bozor qamrovi va boshqa bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha 4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilamiz. Startup Genome tadqiqotlar markazi ekotizimlarning hayotiy sikli davriyligi modelini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, davlatlar o‘z ekotizimlarining qaysi bosqichda ekanligini aniqlashi, o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘yishi, muammolarni aniqlashi va samarali faoliyat olib borish uchun o‘z oldiga yangi maqsadlar o‘rnatishiga yordam beradi.

#### 4-jadval

##### Global startup ekotizimlari reytingi<sup>29</sup>

Ekotizi m nomi	reyti ng	Biznes ga kirib borish	Moliyalashti rish	Bozor qamr ovi	Kommunika tsiya	Qobili yat	Mala ka	Bili m	O‘sis h inde ksi
Silikon vodiysi	1	1	1	1	1	1	1	1	5
Nyu York	2	1	1	3	2	2	1	2	6
London	3-4	1	1	1	1	2	2	1	6
Pekin		1	1	5	5	1	1	1	4
Boston	5	1	2	2	3	1	1	2	7
Tel-Aviv	6-7	2	2	2	1	2	2	1	6
Los’Anj eles		1	1	3	4	3	2	3	5
Shanxay	8	2	2	2	4	1	3	1	6
Parij	9	2	1	3	2	3	3	2	8
Berlin	10	3	2	1	1	2	3	4	6
Stokgol m	11	2	3	3	3	1	1	3	5
Siyetl	12	3	2	1	3	4	4	3	5


O‘zbekistonda ham startaplarni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion hududlarda startup madaniyatini shakllantirish va yangi

<sup>29</sup> Manba: Startup Genome tadqiqotlar markazi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

ishchi o‘rinlarini yaratish maqsadida 2021-yilning 5-aprelida “Innovatsion hududlardagi muammolar yechimiga qaratilgan startap loyihalar” mavzusidagi tanlov e‘lon qilingan. Tanlovga ko‘ra, jami 131 ta startap loyihalar vazirlik tomonidan ko‘rib chiqish va moliyalashtirish uchun taqdim etilgan.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidan 14 ta, Andijon viloyati Marhamat tumanidan 12 ta, Buxoro viloyati Romiton tumanidan 5 ta, Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidan 9 ta, Jizzax viloyati Do‘stlik tumanidan 13 ta, Xorazm viloyati Gurlan tumanidan 19 ta, Namangan viloyati Chust tumanidan 5 ta, Navoiy viloyati Karmana tumanidan 2 ta, Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidan 1 ta, Samarqand viloyatidan Urgut tumanidan 15 ta, Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidan 14 ta, Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidan 3 ta, Toshkent viloyati Ohangaron tumanidan 19 ta startap loyihalar taqdim etilgan. Tanlov natijalariga ko‘ra, 20 mlrd so‘mlik 29 ta startap loyihalar moliyalashtirishga tavsiya qilingan.

Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanidan 3 mlrd so‘mlik 5 ta, Buxoro viloyati Romiton tumanidan 0,8 mlrd so‘mlik 3 ta, Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidan 1,9 mlrd so‘mlik 3 ta, Jizzax viloyati Do‘stlik tumanidan 1,6 mlrd so‘mlik 2 ta, Xorazm viloyati Gurlan tumanidan 2 mlrd so‘mlik 3 ta, Namangan viloyati Chust tumanidan 0,9 mlrd so‘mlik 1 ta, Samarqand viloyati Urgut tumanidan 3,4 mlrd so‘mlik 3 ta, Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidan 1,1 mlrd so‘mlik 3 ta, Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidan 1,3 mlrd so‘mlik 2 ta, Toshkent viloyati Ohangaron tumanidan 4 mlrd so‘mlik 4 ta startap loyihalar tanlovda ko‘rib chiqilishi natijasida moliyalashtirishga tavsiya etilgan (2.1-diagramma).



**1-rasm. Innovatsion hududlardagi muammolarning yechimiga qaratilgan startap loyihalar tanloviga taqdim etilgan loyihalar<sup>30</sup>**

<sup>30</sup> Manba: O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ma’lumotlari.

Innovatsion ishlanmalar orqali xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil 27-dekabr sanasida "Xizmat ko'rsatish sohasidagi startap loyihalar" mavzusida tanlov e'lon qilingan. Mazkur tanlovga jami 201 ta startap loyihalar ko'rib chiqish va moliyalashtirish uchun taqdim etilgan.

Xalqaro tanlovlar doirasida Rossiya hamda Vengriya mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma tanlovlar natijasida jami 4,7 mlrd so'mlik 5 ta startap loyihalar moliyalashtirishga tavsiya etilgan. Mazkur loyihalar amalga oshirilish natijasida qishloq xo'jaligida ma'lumotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha "Big Data" platformasi hamda xonadonlarda issiqlik quvvatini saqlash va energiya tejamkorlik darajasini oshirishga qaratilgan xom ashyo materiallari kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Umumiy hisobda vazirlik tomonidan 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 2 barobar ko'p, ya'ni 6 ta startap loyihalar tanlovi e'lon qilingan.

Innovatsion rivojlanish vazirining 2021-yil 15-iyuldagi 183-son buyrug'iga muvofiq Startap loyihalarni erishilgan natijalarini va loyiha doirasida bajarilgan ishlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi.

2021-yil davomida Vazirlik tomonidan moliyalashtirilgan startap loyihalarning 19 tasi muvaffaqiyatli yakunlanib, loyihani topshirish-qabul qilish dalolatnomalari tuzilgan. Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi natijasida startap kompaniyalar tomonidan bugungi kunga kelib import o'rini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarib, 13,6 mlrd so'm daromadga erishilgan.

Innovatsion rivojlanish vazirining 2021-yil 15-oktyabrdagi 294-son buyrug'iga muvofiq Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi Milliy ofisi Startap loyihalarni baholashda texnik ta'minlash hamda ko'maklashishni, shuningdek, startap loyihalarning monitoringini amalga oshiruvchi Ishchi organ etib belgilandi.

O'tgan yil davomida 3 ta startap loyiha bo'yicha moliyalashtirish to'xtatilib shartnoma bekor qilingan, jumladan, shartnoma majburiyatlarini qisqa muddatlarda bartaraf etish yuzasidan "Biofuel" MChJ bilan medativ kelishuv imzolangan. Shuningdek, loyihani amalga oshirishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan 11 ta startap loyihalar bo'yicha sog'lomlashtirish ishlari olib borilib, tegishli shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlar imzolangan.

Ayni paytda, startap loyihani amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelgan 5 ta startap loyiha doirasida sog'lomlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ularning 3 tasi vazirlik Hay'ati muhokamasi kun tartibida ko'rib chiqilib, startap loyihaning amalga oshirish muddatini uzaytirish bo'yicha qaror qabul qilingan.

Dissertatsiyaning **"Startap loyihalarni tanlab olish mexanizmini takomillashtirish asoslari"** deb nomlangan uchinchi bobida loyihalarni tanlab olishning nazariy asoslari tahlil qilingan va logit model asosida ehtimoliy natijalari ko'rib chiqilgan.

So'ngi yillarda innovatsion g'oyalar va startap-loyihalar soni sezilarli darajada ko'paygan. Taqdim etilayotgan g'oyalar va loyihalar soni yildan yilga oshib bormoqda. Barcha taqdim etilayotgan loyihalar yoki g'oyalar talabga javob bera olmasada, fuqarolarimizda ushbu yo'nalishda tushuncha shakllanayotgani, yangi g'oyalarni ishlab chiqilayotgani e'tiborga molik. Ularning moliyalashtirish jarayoniga yetib borishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Talablarning

yuqoriligi va hujjatlarni rasmiylashtirishda loyiha ishlab chiquvchilarning yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklari hisobiga ko‘plab loyihalar moliyalashtirish jarayoniga yetib kelayotgani yo‘q. Buning asosiy sababi innovatsion loyihalarning moliyaviy tarixga ega emasligi, g‘oya rahbarlarining bunday loyihalar bilan ilk marotaba shug‘ullanayotganligidir. Bundan tashqari, loyihalarni moliyalashtirish, asosan, chetdan moliyalashtirilishi evaziga reja qilinayotganligi, loyiha egalarining o‘z mablag‘iga ega emasligi loyihalarning chuqur tahlil qilinishiga, bosqichma-bosqich tanlov jarayonlaridan o‘tkazishni talab etadi. Bu, o‘z navbatida, har bir loyihaga alohida yondashuv bilan individual yondashishni talab etadi. Tanlov mezonlariga moliyaviy bo‘lmagan ma‘lumotlar ham kiritiladi. Masalan: loyiha rahbarining shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, loyihaning imkoniyatlari bo‘yicha ma‘lumotlar, loyihaning istiqboldagi qamrovi bo‘yicha ma‘lumotlar, biznes rejaning qanchalik darajada sifatli tuzilganligiga tegishli ma‘lumotlar, loyihani amalga oshirishdagi ehtimoliy ma‘lumotlar.

Startup loyihalarning erta va kech rivojlanish bosqichlari opression tarixga ega, shunga mos ravishda startup loyihalarning moliyaviy holatini baholash imkoniyati mavjud. Hamda moliyaviy holatni o‘rganib ushbu ma‘lumotlar asosida defolt ehtimolini hisoblash mumkin.

Shuning uchun tanlov jarayonida moslashuvda quyidagilar samari qo‘llanilishi mumkin:

- moliyaviy tahlil;
- marjinal tahlil yoki CPV-tahlil (costs-profit-volume);
- qarzdorlik ko‘rsatkichlari tahlili;
- defolt ehtimoli tahlili.

Moliyaviy tahlil kompaniyalar faoliyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil qilishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, startup loyihalarni tahlil qilishda CPV-tahlil va qarzdorlik tahlili ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. Sababi ushbu ko‘rsatkichlar qisqa muddatli samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlilida loyihaning to‘lov qobiliyatini aniqroq ko‘rsatib bera oladi.

Ushbu turdagi tahlil usullari asosida loyiha holatini ko‘rsatib berish mazmunida moliyaviy ko‘rsatkichlar yotadi.

Innovatsion faoliyat bo‘yicha loyihalarni tanlashda har qanday innovatsiya bo‘yicha taqdim etilgan loyihalar, biznes g‘oyalar va startaplar hisobga olingan. Jamlangan ma‘lumotlar Innovatsiya vazirligida jamlangan barcha 2016-yildan to 2020-yilgacha ro‘yxatga olingan innovatsion loyihalar asosida hisoblandi. Loyihalarni tanlab olish jarayoniga tanlov mezonlari belgilandi: ular erta va kech rivojlanish bosqichida bo‘lgan loyihalardan tashkil topgan hamda 3.1-jadvalda o‘z ifodasini topdi.

5-jadvaldagi mezonlarga muvofiq, o‘rganilayotgan ma‘lumotlar bazasiga 6928 ta loyiha kiritildi.

Loyihalarni tanlab olish mezonlari<sup>31</sup>

Loyiha xususiyatlari	Tanlash shartlari	Ko'rsatkichlar
Vaqt birligiga ko'ra	Loyihaning faoliyat davriyligi	3 yildan – 10 yilgacha
Kichik va o'rta	Daromadi	yillik daromad 100 000 000 dan 500 000 000 so'mgacha
Tez o'suvchan	O'sish tezligi	Yillik 20 %dan ortiq, davomiyligi 2 yildan kam bo'lmagan
Innovatsion (startup)	Kompaniyaning faoliyat turi bo'yicha	Ishlab chiqarish tarmog'i, axborot va kommunikatsiya sohasidagi faoliyat, moliyaviy va sug'urta faoliyati, ilmiy-texnik faoliyat.

Shunday qilib, faoliyati robototexnika, zamonaviy navigatsiya tizimlari, aloqa vositalarini ishlab chiqarish, yangi dorivor preparatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan “qayta ishlash tarmoqlari” toifasidagi 112 ta loyihani o'z ichiga olgan namunaviy tuzilma shakllantirildi; faoliyati kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, reklama texnologiyalari, ma'lumotlar bazalarini yaratish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” toifasidagi 4044 ta loyiha; Faoliyati to'lov tizimlari, venchur moliyalashtirish, mikromoliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan Fintech toifasidagi 73 ta loyiha, ilmiy tadqiqot yo'nalishidagi 2699 ta loyiha, faoliyati biotexnologiyalar, tabiiy va texnikaviy fanlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar hamda ishlanmalar, axborot xavfsizligi bilan bog'liq loyihalarni quyidagi jadvalda tarkibiy qismlarga ajratib namunaviy tuzilma shakllantirildi (6-jadval).

Loyihalar bo'yicha namunaviy tuzilma<sup>32</sup>

Tarmoq nomi	Loyihalar nng soni, birlik	Hajmi bo'yicha, birlik	Yil bo'yicha, birlik
<b>Sanoat tarmoqlarida</b>	112	Mikro – 79 Kichik – 25 O'rta – 8	3-5 yil – 29 6-7 yil – 34 8-10 yil – 49
<b>Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari</b>	4 044	Mikro – 3404 Kichik – 517 O'rta – 76	3-5 yil – 1530 6-7 yil – 1214 8-10 yil – 1300
<b>Mikro moliyalashtirish (Fintech)</b>	73	Mikro – 51 Kichik – 20 O'rta – 2	3-5 yil – 18 6-7 yil – 28 8-10 yil – 27
<b>IT va TKI</b>	2 699	Mikro – 2340 Kichik – 325 O'rta – 34	3-5 yil – 1164 6-7 yil – 878 8-10 yil – 657
<b>Jami</b>	6 928 loyiha		

<sup>31</sup> Manba: muallif ishlanmasi.<sup>32</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, erta va kech o'sish bosqichida bo'lgan loyihalar balansi tuzilishining quyidagi xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

moddiy va nomoddiy aktivlar ulushi kamligi yoki ularning mavjud emasligi;  
aktivlar balansi tarkibida aylanma mablag'larning yuqori ulushi;  
shaxsiy kapital tarkibida ustav kapitali ulushining pastligi;  
uzoq muddatli majburiyatlar ulushi pastligi yoki ularning mutlaq mavjud emasligi;  
balansning passiv qismi tarkibida qisqa muddatli majburiyatlarning yuqori ulushi.

Loyihalarga tegishli bo'lgan va sanab o'tilgan xususiyatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, an'anaviy tahlil usulida hisoblash o'tkazilganida bir qator ko'effitsiyentlar hisobga olinmaydi va ba'zi ko'effitsiyentlar tavsiya etilgan cheklovlariga mos kelmaydi.

Birinchi bosqichda an'anaviy kompaniyalarning moliyaviy holatini baholash uchun ilmiy va amaliy adabiyotlarda qo'llaniladigan ko'effitsiyentlar tahlili o'tkazildi hamda yangi loyihalar uchun eng mos bo'lganlari aniqlandi, bular:

1) moliyaviy tahlil ko'effitsiyentlari: avtonomiya, jalb qilingan va o'z mablag'lari nisbati, manyovrlilik, zaxiralarni o'z va ularga tenglashtirilgan shakllanish manbalari bilan ta'minlash, mutlaq likvidlik, likvidlik, qoplanish, kreditorlik va debitorlik qarzlarning nisbati;

2) CPV-tahlil ko'effitsiyenti: moliyaviy imkoniyat chegarasi;

3) qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari ko'effitsiyentlari: to'lanadigan foizlarni qoplash, qarzni to'liq qoplash.

Ikkinchi bosqichda startaplar uchun tavsiya etilgan chegaralar 5 va 6-jadvallarda keltirilgan balans tuzilmasining o'ziga xosligi bilan bog'liq holda hisoblab chiqildi. Yakuniy jadvalda ko'rsatkichlari tegishli ma'lumotlarga ega bo'lmagan ko'effitsiyentlar, masalan, ishlab chiqarish ulushining haqiqiy qiymati ko'effitsiyenti va boshqalar kiritilmagan.

Uchinchi bosqichda taqdim etilgan ko'effitsiyentlar va tavsiya etilgan cheklovlar asosida moliyaviy qarorlarni qabul qilish samaradorligi baholandi. Buning uchun o'rganilgan 2016-2017-yillar uchun bir xil loyihalarning ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. 6929 ta loyihadan va unga "faoliyati to'xtatilgan" korxonalari, xususan, "faoliyati to'xtayotgan" maqomiga o'tgan, shuningdek, ko'rsatkichlari bankrotlik tomon ketayotgan va hisobvaraqlari to'xtatib qo'yilgan loyihalar qo'shildi. Shunday qilib, 2016-2017-yillardagi loyihalar bazasi shakllantirildi. 2018-yilda faoliyati davom etgan yoki endigina boshlayotgan 7 444 loyihadan (6 928 tasi faol va 516 tasi faoliyati to'xtatilgan).

Nisbatlarning butun ro'yxati uchun 60 foizdan ortiq hollarda, agar nisbatlar tavsiya etilgan talablarga mos kelmasligi aniqlansa, loyihalarning umumiy ko'rsatkichi pasayadi. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'effitsiyentlari tavsiya etilgan chegaralarga to'g'ri kelmaydigan vaqtning 60 foizida loyihalar unumdorligi pasaygan va shuning uchun faoliyati to'xtatilish xavfi yuqori. Bunday loyihalarlarda kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha 10tadan kamida 4 tasi "to'xtatilgan".

Shunday qilib, agar sanab o'tilgan koeffitsiyentlarning 4 yoki undan ko'pi tavsiya etilgan chegaralarga mos kelmasa, 60 foizdan ko'proq hollarda bunday ishga tushirish yuqori defolt xavfi zonasiga tushadi. Shuning uchun, loyihalar hisobotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, aniqlangan moliyaviy ko'rsatkichlar va tavsiya etilgan chegaralar investorlar uchun qaror qabul qilish uchun loyihalarni tanlash jarayoniga kiritilishi mumkin.

Innovatsiya diffuziyasi mormula asosida hisoblanib innovatsiyalarni korxona va tashkilotlarga tarqatish tezligini hisoblab chiqildi. Uning natijasiga ko'ra, Innovatsiya diffuziyasining asosiy formulasi "Bass modeli" (Bass Model)ning matematik ko'rinishida aks ettiriladi. Bass modeli – bu Everett Rogers tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasiga asoslangan matematik model bo'lib, innovatsiyalarni qanday qilib jamiyatda yoki bozor segmentida tarqalishini tavsiflash uchun ishlatiladi. Modelni 1969-yilda Frank Bass ishlab chiqqan.

Bu model innovatsiyalarning bozorda qanday tezlik bilan qabul qilinishi yoki tarqalishini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Formula quyidagicha:

$$f(t) = p + \frac{q}{m} \cdot N(t)$$

Bu yerda:

$f(t)$ : ma'lum vaqtda innovatsiyani qabul qiluvchilarning foizi.

$p$ : innovatsiyani qabul qiluvchi "innovatorlar" koeffitsiyenti (ijtimoiy ta'sirsiz qabul qiluvchilar).

$q$ : "imitatorlar" koeffitsiyenti (ijtimoiy ta'sir bilan qabul qiluvchilar).

$m$ : bozorning umumiy hajmi (imkoniyati).

$N(t)$ : ma'lum vaqtga qadar innovatsiyani qabul qilgan umumiy iste'molchilar soni.

Qabul qilinganlar sonining tenglamasi:

$$N(t) = m \cdot \frac{1 - e^{-(p+q)t}}{1 + \frac{q}{p} \cdot e^{-(p+q)t}}$$

Bu formula bozorda innovatsiyalarning vaqt bo'yicha tarqalishini prognoz qilishda qo'llaniladi. "Innovatorlar" va "imitatorlar" o'rtasidagi o'zaro ta'sir innovatsiya qabul qilish tezligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi IT sohasida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarga "Coursera" ta'lim platformasida bepul o'qib, xalqaro IT sertifikatlariga ega bo'lish imkoniyatini yaratdi. "Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasi 2025-2026-yillar rejasida xalqaro IT sertifikatlarni olganlar sonini 1 millionga, professional xalqaro IT sertifikatlar olganlar sonini esa 30 mingga yetkazish maqsad qilingan.

Qolaversa, loyiha doirasida yuqori natija ko'rsatgan eng yaxshi 2 ta maktabga Prezident sovg'asi – 2 ta elektromobil berilishi ham rejalashtirilgan. Shu bilan birga,

loyiha doirasida 14 ta hududda eng yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilarga 700 ta noutbuk, Top-10 nafar o'qituvchiga chet elga sayohat, loyiha doirasida eng yuqori natija ko'rsatgan 100 ta o'qituvchiga 10 mln. so'mdan pul mukofoti va Top-3 oliy ta'lim muassasalariga pul mukofotlari berilishi ko'zlangan.

Innovatsiyalar bozorining umumiy hajmini  $m=1,000,000$  dona startap loyihalar tashkil qiladi (ya'ni bu startap loyihalarni yutib olishi mumkin bo'lgan barcha mijozlar soni 1 million). Innovatorlarning koeffitsiyenti  $p=0.03$  va imitatorlarning koeffitsiyenti  $q=0.38$ . Bass modeli orqali 6-oyda qancha mijoz ushbu smartfonni sotib olganini hisoblaymiz.

Berilgan ma'lumotlar:

$$m=1,000,000$$

$$p=0.03$$

$$q=0.38$$

$$t=6$$

Innovatsiyani qabul qilgan mijozlarning umumiy soni  $N(t)$  formula orqali hisoblanadi:

$$N(t) = m \cdot \frac{1 - e^{-(p+q)t}}{1 + \frac{q}{p} \cdot e^{-(p+q)t}}$$

$$N(6) = 1,000,000 \cdot \frac{1 - e^{-(0.03+0.38) \cdot 6}}{1 + \frac{0.38}{0.03} \cdot e^{-(0.03+0.38) \cdot 6}}$$

$$N(6) = 1,000,000 \cdot \frac{1 - 0.085}{1 + \frac{0.38}{0.03} \cdot 0.085}$$

## 7-jadval

### Kummulyativ innovatsiyalar rivojlanish istiqboli<sup>33</sup>

Oylar	F(t) To'plangan tajriba	O'sish ( $\Delta F(t)$ )
1	30	30.0
2	70.18	40.18
3	118.3	48.12
4	184.0	65.69
5	265.3	81.32
6	304.0	96.0

<sup>33</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yarim yilda taxminan 440 dona startap loyihalar taqdim etiladi. Yuqoridagi prognozdan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda kummulyativ innovatsiyalar rivojlanishi kutilmoqda.

## XULOSA

O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda startaplarni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiya tadqiqotida quyidagi xulosalar hamda natijalarga erishildi:

1. "Startap" tushunchasining mohiyati mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar hamda amaliyotchilarning turli nuqtayi nazarlari asosida o'rganilib, startapning asosiy belgilari aniqlandi: kichik hajmli, tez o'sish va kengayish, innovatsionlik, ijodkor shaxsga urg'u berish, noaniqlik sharoitlari, uni moliyalashtirishning ushbu xususiyatlarga mos keladigan jihatlariga turli yondashuvlar o'rganildi. Startapning mohiyatini ochib berish uchun "startap" atamasini ta'riflashga mualliflik yondashuvi taklif etildi, shuningdek, noaniqlik zonasi va defolt xavfining ortishi aniqlangan holda startaplarni rivojlantirish yo'llari taqdim etildi. "Moliya" va "innovatsion faoliyatni moliyalashtirish" tushunchalarini ko'rib chiqish "startup moliyalashtirish" atamasini aniqlashga imkon berdi va shu bilan tadqiqotning konseptual apparati uchun asos yaratdi.

2. "Moliyalash mexanizmi" tushunchasiga nazariy yondashuvlar o'rganildi, bu uning ikki tomonlama xususiyatini aniqlash hamda jarayon va tizimli yondashuvlar nuqtayi nazaridan keyingi tadqiqot va strukturalashtirishni amalga oshirish imkonini berdi. Ushbu atamaning ikki tomonlama xususiyatini inobatga olgan holda, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning ikki tomonlama tizimini hisobga olgan holda startaplarni moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish bo'yicha mualliflik sxemasi ishlab chiqilgan (bir tomondan, mablag' izlayotgan startaplar yaratuvchilari, ikkinchi tomondan, ushbu mablag'ni ta'minlovchi investorlar) hamda startaplarni moliyalashtirish mexanizmining maqsad va tamoyillari belgilab berildi. Startaplarning hayot sikli nazariyasi o'rganildi, startaplarni moliyalashtirishning turlari, vositalari, manbalari va shakllari batafsil ko'rib chiqildi, bu esa bosqichga qarab startaplarni moliyalashtirish mexanizmi elementlarining tasnifini ishlab chiqish imkonini berdi. Taklif etilayotgan tasnif moliyalashtirish mexanizmi elementlaridan startaplar va investorlarning maqsadlariga muvofiq samarali foydalanish imkonini beradi. Startaplar uchun moliyalashtirish turlarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari shakllantirilgan bo'lib, ular amaliy nuqtayi nazardan startap ta'sischilariga moliyalashtirishning u yoki bu turidan foydalanish bilan bog'liq xavflarni hisobga olish imkonini beradi.

3. O'zbekistonda va jahonda startaplarni moliyalashtirishning asosiy tendensiyalari aniqlandi: global startap iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari uning asosiy tarmoqlari va ekotizimlari kontekstida tahlil qilindi. Natijada ushbu tarmoqlarning notekis rivojlanishi va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda yuqori konsentratsiya aniqlandi; butun jahon moliya sektori va butun startap

iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning asosiy omili bo'lgan Fintech startap sektorini rivojlantirish tendensiyalari tahlili o'tkazildi; startaplarni moliyalashtirishning barcha asosiy turlari (subsidiyalangan, an'anaviy, venchur, muqobil, portfel) tahlili o'tkazildi; O'zbekiston startaplarini moliyalashtirishni rivojlantirish tendensiyalarining tahlili o'tkazildi. Trend tahlili natijalariga ko'ra, dunyodagi startaplarni moliyalashtirishning asosiy yondashuvlari: Osiyo, Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaqin Sharq mamlakatlarida aniqlandi hamda O'zbekiston uchun startaplarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

4. Korrelyatsiya-regressiya tahlili asosida yangi boshlanuvchilar uchun muqobil moliyalashtirishni rivojlantirishga ta'sir etuvchi raqamli texnologiyalar va milliy iqtisodiyotlarning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan asosiy omillar aniqlandi hamda model ishlab chiqildi. Jahon banki tasnifi bo'yicha aholi jon boshiga daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun startaplarni muqobil moliyalashtirish hajmini bashorat qilish mumkin. Shuningdek, omillarga bog'liqlik yo'qligi, demak, aholi jon boshiga o'rtacha daromadga ega bo'lgan mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham startaplarni moliyalashtirish mexanizmini tashkil etishda tizimli yondashuv mavjudligi aniqlandi. Bu mamlakatlarda muqobil manbalar innovatsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmagani, moliyalashtirish jarayoni tartibsiz, kompaniyalarni tanlash va tahlil qilishning samarali tizimisiz, ishtirokchilar bilan yaqindan o'zaro aloqada bo'lgan samarali moliyalashtirish infratuzilmasi (ekotizimi)siz sodir bo'lishi asoslandi.

5. Har xil moliyalashtirish turlarida (subsidiyalangan, an'anaviy, venchur va muqobil) qo'llaniladigan startaplarni tanlash jarayoniga yondashuvlar o'rganildi, ya'ni jarayon yondashuvi nuqtayi nazaridan startaplarni moliyalashtirish mexanizmi ko'rib chiqildi. Yondashuvlarni o'rganish natijasida investorlar moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun startaplarni tanlashda duch keladigan muammolar aniqlandi.

6. Muqobil moliyalashtirish bozorida startaplarni tanlash tizimi mavjud emasligi sababli biz startaplarni moliyalashtirishning muqobil mexanizmini shakllantirish sxemasini taklif qildik, bu mexanizmga "investorlar assotsiatsiyalari" kiradi, bu esa muammolarni hal qiladi. Startaplarni tanlashda ko'rib chiqilgan mavjud yondashuvlarga asoslanib, barcha turdagi tahlillarni moslashtirish va startaplar uchun defolt ehtimolini prognoz qilish zarurati dalillandi.

7. Startaplarning moliyaviy holatini baholash asosida tanlov jarayoni shakllantirildi. Bu jarayon ushbu loyihalarning hayot sikli bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi va tanlangan moliyalashtirish shakliga bog'liq. Asosan, subsidiyalangan va kapital moliyalashtirish shakllaridan foydalanadigan "urug'li" startaplar uchun tanlov jarayoni an'anaviydan faqat ssenariy variantlari bilan emas, balki loyihani amalga oshirish ehtimolini hisoblash sharti mavjudligi bilan farq qiladi. Qarz va gibril moliyalashtirishdan foydalangan holda erta hamda kech o'sish bosqichlarida startaplar uchun ma'lumot to'plashning yagona shakllariga, aniqlangan to'xtash omillariga, moliyaviy ahvolni tahlil qilish ko'rsatkichlari va yangi tavsiya etilgan limitlarga asoslangan tanlov jarayoni ishlab chiqilgan.

8. Erta va kech o'sish bosqichidagi 6928 ta loyihadan iborat moliyaviy hisobot bazasi o'rganildi hamda loyihalarning balans tuzilmasi shakllantirildi, shundan

ma'lum bo'ldiki, aylanma aktivlar 30 foizni tashkil etadi; balans tuzilmasida aylanma aktivlar – 70 foiz, kapital va zaxiralar – 33 foiz, uzoq muddatli majburiyatlar – 17 foiz, qisqa muddatli majburiyatlar – 50 foiz. Ushbu ma'lumotlar asosida loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy holatini tahlil qilish uchun koeffitsiyentlar tanlandi va ular uchun tavsiya etilgan limitlar ishlab chiqildi, ular asosida moliyalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinishi mumkin.

9. 6928 ta loyihalar asosida startaplarining defolt ehtimolini bashorat qilish uchun logit modeli ishlab chiqildi va umumiy hamda ikkita yo'nalishda sinovdan o'tkazildi: 1) AKT va Fintech, 2) Ilmiy tadqiqot. Ushbu universal modellar amalda moliyaviy qarorlarni qabul qilishda moliyaviy ahvolni to'xtatib turish ehtimolini baholash vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Model 50 foizlik kesish koeffitsiyentidan foydalanadi. Boshqa chegara omillaridan foydalanish "standart" yoki "nostandart" kompaniyalarni bashorat qilishning aniqligini oshirishi mumkin. Turli xil chegara omillaridan foydalanish ma'lum bir moliyalashtirish manbasi – ishtirokchilarning maqsad va vazifalariga bog'liq.

10. Moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish jarayonida turli ishtirokchilar uchun turli xil chegara omillaridan foydalanish asoslab berildi va ishlab chiqilgan logit modellari o'quv namunasi bo'yicha sinovdan o'tkazildi.

11. Turli ishtirokchilar (davlat, fan, biznes, fuqarolik jamiyati) uchun startap loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishtirokchilar uchun taklif etilgan tavsiyalarni amalga oshirish, yangi loyihalarni moliyalashtirish jarayonida ularning manfaatlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, muqobil moliyalashtirish kabi moliyalashtirishning yangi turlarini yanada samaraliroq joriy etish va ularni innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish imkonini beradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
№ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ТУРГУНОВ ДОСТОН ТУРГУНОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит  
08.00.01 – Экономическая теория**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2025**

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером № B2023.PhD/Iqt2857.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

Научный руководитель:

Хаджиев Бахтиёр Душабаевич  
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Алимардонов Илхом Музробшохович  
доктор экономических наук, профессор

Шакирова Фарогат Болтаевна  
доктор философии по экономическим наукам,  
профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится в 14<sup>00</sup> часов «3» 10 2025 года на заседании Разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером № 1795). Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «10» 09 2025 года.

(протокол реестра № 83 от «3» 10 2025 года)



С.У. Мехмонов

Председатель Разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь Разового Научного совета Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов

Председатель Разового Научного семинара на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Совершенствование финансовой поддержки в инновационном развитии мировой экономики играет решающую роль в стимулировании научно-исследовательских работ, финансировании стартапов и инновационных кластеров, а также в обеспечении устойчивого роста высокотехнологичных сегментов экономики. Эффективное использование современных финансовых инструментов (венчурный капитал, бизнес-ангелы, гранты, краудфандинг и государственные субсидии) позволяет сбалансировать риски и эффективность инновационных проектов, расширить возможности выхода на новые рыночные сегменты и повысить конкурентоспособность национальной экономики. Вместе с тем совершенствование системы финансовой поддержки ускоряет процесс коммерциализации инноваций и обеспечивает активное участие в глобальных инновационных цепочках. Как отмечается в международных исследованиях, «венчурное финансирование и дополнительные финансовые стимулы со стороны государства усиливают масштабирование инноваций и их влияние на общий экономический рост». Из этого следует, что совершенствование финансовой поддержки выступает ключевым драйвером инновационного развития, обеспечивая устойчивый рост и конкурентоспособность в мировой экономике.

В мировом масштабе исследования по совершенствованию финансовой поддержки инновационного развития направлены, прежде всего, на диверсификацию финансовых инструментов и их адаптацию к потребностям инновационного бизнеса. Среди приоритетных направлений особое значение приобретают укрепление институциональных основ венчурного капитала и бизнес-ангелов, эффективное использование краудфандинга и цифровых финансовых платформ, а также усиление роли государственных грантов и субсидий в деятельности инновационных стартапов. Одновременно исследования акцентируют внимание на разработке механизмов инновационного финансирования на основе принципов ESG, приеме объектов интеллектуальной собственности в качестве залога и совершенствовании методов страхования финансовых рисков в процессе коммерциализации инноваций.

В Узбекистане в целях совершенствования финансовой поддержки инновационного развития определен ряд задач и реализуются практические меры, направленные на стимулирование инноваций в партнерстве государства и частного сектора. В частности, в рамках «Стратегии инновационного развития» предусмотрено формирование национальной инновационной системы, увеличение объемов финансирования научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ (НИОКР), внедрение механизмов венчурного финансирования и грантов для инновационных стартапов, а также реализация проектов государственно-частного партнерства, ориентированных на инновации. Кроме того, предоставление налоговых льгот и кредитных ресурсов для инновационных проектов

способствует повышению их финансовой привлекательности. Наряду с этим укрепляются институциональные основы поддержки инноваций через цифровые финансовые платформы и венчурные фонды. Эти реформы способствуют развитию инновационной деятельности в стране, повышению конкурентоспособности национальной экономики и одновременно подтверждают актуальность исследований, направленных на решение данных вопросов.

